



VOYAGA YETMAGANLARGA IJTIMOY-HUQUQIY YORDAM KO'RSATISH MARKAZI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH TARTIB-TAOMILLARI

Shodmonov Ubaydullohon To'raho'jayevich

ISFT (International school of finance technology and science) instituti
Fundamental iqtisodiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15475607>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2025 yil
Ma'qullandi: 15-May 2025 yil
Nashr qilindi: 20-May 2025 yil

KEYWORDS

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari, voyaga yetmaganlar, qarovsiz bolalar, profilaktik tadbirlar, huquqiy asoslar, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi, jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy reabilitatsiya, jamoatchilik nazorati, monitoring mexanizmlari.

ABSTRACT

Maqola O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlarini tahlil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi 490-son qarori asosida tashkil etilgan 14 ta markazning faoliyati, ular tomonidan 3 131 nafar voyaga yetmaganlarga ko'rsatilgan yordam va natijalari ko'rib chiqiladi. Markazlarning asosiy vazifalari, jumladan, qarovsiz bolalarni aniqlash, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, reabilitatsiya va profilaktik tadbirlar tashkil etish kabi yo'nalishlar tahlil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son va "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonunlari markazlar faoliyatining huquqiy asoslari sifatida keltiriladi. 2022 yilda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 6,3 foizga o'sishi profilaktik tadbirlarning yetarli emasligini ko'rsatadi. Maqolada markazlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar, jumladan, huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash, monitoring tizimini joriy etish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish va onlayn kuzatuv tizimini yaratish kabi chora-tadbirlar keltiriladi. Maqola voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishda markazlarning rolini oshirishga qaratilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 490-son qarori bilan ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar nazoratisiz va qarovsiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar (keyingi o'rinlarda —

qarovsiz bolalar) bilan ishlash bo'yicha faoliyatni samarali tashkil etish, shuningdek, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari tashkil etildi.

Ushbu markazlar jami Respublikamizda 14 ta xiosblanib ushbu markazlarda 3131 ta voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, ushbu voyaga yetmaganlarni markaz tomonidan 2997 tasi ota-onasi yoki o'rnini bosuvchi shaxslarga, 44tasi Respublika o'g'il va qiz bolalar O'TMga, 34tasi ixtisoslashtirilgan o'quv ta'lim muassasalariga, 29tasi mehribonlik uylar va oilaviy bolalar uyiga, 28tasi vasiylik va homiylik organlariga topshirilgan.

Ushbu qaror bilan Markazlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilan:

qarovsiz bolalarning shaxsini aniqlash, ularning o'qishi va xulq-atvorini, oilasidagi muhitni hamda qarovsiz qolishiga sabab bo'lgan omillarni to'liq o'rganish;

qarovsiz bolalarning ijtimoiy-huquqiy holatiga baho berish va tibbiy tekshiruvdan o'tkazish natijasiga ko'ra ularni ota-onasiga topshirish yoki tegishli ixtisoslashtirilgan ta'lim, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya, bolalar yoki sog'liqni saqlash muassasalariga joylashtirilishini tashkil etish;

qarovsiz bolalarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, shu jumladan, ularni oziq-ovqat, birlamchi kiyim-kechak va ashyoviy ta'minot buyumlari bilan ta'minlash, vaqtincha saqlash va kasb-hunarga o'rgatish tadbirlarini tashkil etish.

Ushbu markaz faoliyatiga ehtiyoj sifatida profilaktika inspektorlari, mahalla faollari hamda ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda yetarli profilaktik tadbirlar tashkil etilmaganligi oqibatida 2022 yilning 12 oyida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2 404 tani (2 404/2 262) tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142 taga yoki 6,3 foizga oshgan.

Shuningdek, ushbu markazni tashkil etilishiga huquiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan 77-moddasida *"ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi"* deb ta'kidlangan.

Ushbu jumlada davlatga voyaga yetmaganlarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan. Shu bois ushbu markazni tashkil etishga ehtiyoj tug'ilgan.

Bundan tashqari qomusimizning 79-moddasida "davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" deb ta'kidlanishi, ushbu ishlarni negizida **ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazining asosiy vazifalari belgilangan bo'lib, bular quyidagilar:**

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy, tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

bolalarning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik moyilliklari, qobiliyatlari, qiziqishlari, bolalar hayoti va sog'lig'ini saqlash talablariga muvofiq tarzda voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularni ijtimoiy himoya qilish va har tomonlama rivojlantirishga yordam berishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish.

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish.

Chunonchi, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida tashkil etilgan bu markazlar O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 avgustdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son Qonunining 12-moddasiga binoan ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari o'z vakolatlari doirasida quyidagilar kirishi belgilandi. Bular:

birinchidan, uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog'lig'ini muhofaza qilish yoki ular tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni kecha-kunduz qabul qilishni hamda vaqtincha saqlashni ta'minlaydi;

ikkinchidan, olib kelingan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlaydi hamda bu haqda tegishli davlat organlarini va boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi;

uchinchidan, voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga olib boradi, shuningdek ushbu muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishi yoki ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ushbu moddaning o'ziga hosligi shundaki ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga quyidagi kontingentdagi voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkinligi belgilangan:

Boquvchisini yo'qotib yoki ularni beparvoligi tufali nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarini yoxud boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etganlar yoki ushbu muassasalardan qochganlar;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan o'n olti yoshgacha bo'lganlar;

ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy holatining buzilganligi bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish zarur bo'lsa, shuningdek ularning shaxsi aniqlanmagan yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;

ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan huquqbuzarliklarni sodir etganlar, agar ularning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari huquqbuzarliklar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;

o'zining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilishi to'g'risidagi masalaning sud tomonidan ko'rib chiqilishini vaqtincha kutib turganlar;

sudning ajrimiga ko'ra ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga yuborilayotganlar.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son Qonunining 3-moddasiga binoan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish — huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui deb tarif berilgan bo'lsa ushbu tushunchani amalda ijrosini ta'minlash ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari vazifasi hisoblanadi.

Qonunning 45-moddasiga binoan Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari qonunchilikka muvofiq huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar tuzishi mumkin. Ixtisoslashtirilgan muassasalar huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatadi deb ta'kidlangan bo'lsa ushbu markazlar aynan shu vazifani bajaradi.

Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tuzish va ularning ishini tashkil etish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi faoliyatini tartibga soluvchi normalarni takomillashtirishdan maqsad va ehtiyoj:

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi faoliyatini tartibga soluvchi normalarni takomillashtirishdan maqsad bu

1) nazoratsiz voyaga yetmaganlarga oid qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishning barcha bosqichida, shu jumladan Vazirlar Mahkamasiga kiritish jarayonida ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

2) ichki ishlar organlari huzuridagi ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi ustidan nazorat organlari tomonidan monitoringni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini joriy qilish hamda huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish;

3) voyaga yetmaganlarining huquqlarini himoya qilishda va ularni jinoyat sodir etmasligi uchun qayta tarbiyalashga, ularni barcha sohalarda qullab quvvatlashda, shuningdek, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi faoliyatini turli maqsadli dasturlar ishlab chiqilishida ishtirok etishi va ularning ijrosi ustidan monitoring olib borishning huquqiy mexanizmlarini yaratish;

4) nazoratsiz voyaga yetmaganlar muammolari bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari tashkil etilishini qo'llab-quvvatlash;

5) ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyatni qonun hujjatlari va davlat dasturlarida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini barcha uchun ochiq bo'lgan onlayn kuzatib borish tizimini joriy qilish;

6) ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining faoliyati samaradorligini baholab borish, davlat dasturlari ijrosi hamda davlat organlari faoliyati yuzasidan hisobotlarni tayyorlashda ichki ishlar organlari va maxalla yettiligi bilan hamkorlikdagiga oid yo'l xaritasini ishlab chiqish;

7) ichki ishlar organlari huzuridagi ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari tomonidan o'z vazifalarini amalga oshirishning o'zaro manfaatdor va amaliy mexanizmlarini yaratish;

8) jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvi va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari ishtiroki darajasini oshirish, shuningdek, davlat organlarining ochiqqligi va oshkoraligini yanada kengroq ta'minlash.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart kunidagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (2008-yil 7-yanvar).
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".
6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
8. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 490-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
11. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.
12. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgust kunidagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-558-son Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.